E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Issiq iqlim sharoitida Big-6 va bronzarang keng ko‘krakli kurkalarning go‘sht mahsuldorligini o‘rganish

Karimova Yorqinoy Sheralievna
Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
karimovayorqinoy144@gmail.com

Annotatsiya: O’zbekistonda kurkachilikni rivojlantirish uchun ularni o’sish va rivojlanishini, mahsuldorligini o’rganib, xalq xo’jaligiga daromad olib kelish.

Kalit so‘zlar: Kurka, Big 6, bronzarang, jo’ja, kurka go’shti, tuxum, zot, kross, genotip, gala, seleksiya.

Аннотация: Развивать индейководство в Узбекистане, изучать их рост и развитие, продуктивность, проносить доход народному хозяйству.

Annotation: To develop turkey farming in Uzbekistan, study their growth and development, productivity and bring income to the national economy.

KIRISH

Parrandachilik aholini parhez parranda go‘shti va tuxum mahsulotlari bilan, sanoatni turli xom-ashyo bilan ta’minlaydigan serdaromad tarmoqlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24-yanvardagi “Parrandachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-100 qaroriga asosan aholini parranda go‘shti bilan barqaror ta’minlash hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh parranda mahsulotlar ishlab chiqarishni ikki barobar ko‘paytirish belgilangan.

Shuningdek davlat rahbarining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning 30-chi va 32-chi maqsadlarida Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko‘paytirish vazifasi belgilangan.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda 2021 yil 1 yanvar holatiga jami 90 mln parranda boqilib, uning 56 % dexqon xo‘jaliklari va aholi xonadonlarida, 31 % “Parrandasanoat” uyushmasi tizimidagi ixtisoslashgan parrandachilik korxonalarida va 13 % fermer xo‘jaliklarida parvarish qilinmoqda.

Rivojlangan davlatlarda go‘sht yo‘nalishidagi parrandachilikda kurkachilik tarmog‘i yuqori o‘rinda turadi. Kurka go‘shtini iste’molbop, mazali va parhez taom sifatida eng ko‘p ishlab chiqaradigan davlatlar AQSh, Italiya, Fransiya va Angliya hisoblanadi. Bu davlatlarda ishlab chiqarilgan parranda go‘shti ichida kurka go‘shti 15 %-25 % ni tashkil etadi.

Shaxsiy tomorqada kurka boqish juda foydali hisoblanadi. Masalan, bahorda 30 ta kurka jo‘jasini olib boqilsa, kuzga kelib yuqori sifatli boshqa uy parranda go‘shtidan mazaliroq bo‘lgan jami 150-180 kg gacha go‘sht olishingiz mumkin. Kurka go‘shtini tarkibida “V” vitamin ko‘p, xolesterin juda kam miqdorda bo‘ladi. Yiliga kurkalardan 100-150 dona atrofida tuxum olish mumkin.

Parranda go‘shti esa yuqori to‘yimliligi va ajoyib ta’mi hamda sifatlari bilan ajralib turadi. Oqsil tarkibi buyicha (185 %) tovuq go‘shti, kurka faqat mol go‘shtidan keyin turadi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Toza mahsulot chiqishi 80 % gacha boradi, shundan 67 % iste'mol qilinadigan qismini tashkil etadi.

O'zining sermahsuldorligi bilan hamda oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta'minlashda kurkachilik alohida muhim rol o'ynamoqda.

Mavzusining dolzarbligi va zarurati. Respublikamizga kurkalarning turli mahsulot beradigan zot va krossini kirib kelishi natijasida ularning o'zlari va avlodlarini sanoat asosida xamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda yetishtirish, O'zbekiston sharoitiga moslashishi natijasida kurkalarning go'sht mahsuldorligi, ularni o'zgarishlarini aniqlash va ilmiy asoslash lozimligini ko'rsatmoqda. Ushbu ilmiy ishlanma natijasida kurkalarning tirik vaznini solishtirib qaysi zotning hayotchanligi yuqoriligi va sermahsulligi, issiq iqlimga moslashishi, yordamchi xo'jaliklarda xamda sanoat asosida ustunligini aniqlash kelajakda kurkalarning zoti aniqlanib go'sht mahsuldorligi, seleksion belgilari o'rganiladi. O'zbekiston kurkachilikni rivojlantirish parrandachilik mutaxassislari oldida turgan muxim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Big-6 krossi va mahalliy bronza zotli kurkalarning go'sht mahsuldorligi va go'sht sifatini qiyosiy o'rganish, shuningdek, kurka go'shtidan oziq-ovqat mahsulotlari turli-tumanligini kengaytirish dolzarb va amaliy ahamiyatga ega.

Kurkalar bosh sonini ko'paytirish va ularning parhezli mahsulotlarini tez va sifatli yetishtirish muammosini hal etish, ularning O'zbekiston sharoitida seleksiya-naslchilik ishlariga e'tibor qaratish, kurkalarning turli zotlarini xududlarning geografik sharoitlariga mos joylashtirish va ko'paytirish biznes rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish, O'zbekiston sharoitida xorijdan keltirilgan kurkalarning go'sht yo'nalishlardagi yuqori mahsuldor parrandalarning ota onalik shakllari va belgilarining ko'rsatgichlarini asrab qolishda, ularning avlodlaridan yuqori mahsuldor galalarini shakllantirish va bu avlodlarning ekster'erlari va xo'jalik foydali belgilarini maxsuldorlik o'zgarishlarini ilmiy asosda o'rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bu borada kurkachilik yo'nalishlarida go'shtdor kurkalar galalarini yaratishda, ularning yordamchi xo'jaliklardagi va sanoat asosidagi kurkalarni foydali belgilarini turli usulda boqish, saqlash va oziqlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ular asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizga keltirilayotgan xorijiy parrandalarning xo'jalik foydali belgilari va mahsuldorlik ko'rsatgichlari aniq tasniflangan. Ammo ularning O'zbekiston sharoitida asrash, parvarishlash va mahsulot yetishtirish ilmiy asosda o'rganilmagan.

Turli genotipga ega kurka tizimlari va krosslarining turli konstitutsiya tiplaridagi asosiy seleksiya belgilari o'zaro bog'liqlikda mahsuldorlik xususiyatlari Respublikamizning o'ziga xos iqlim sharoitida o'rganilmoqda.Ularning zotlari va krosslari, tizimi bo'yicha turli xo'jalik foydali belgilarini o'rganish bo'yicha Respublikamizda ilmiy -amaliy tadqiqotlar to'liq olib borilmagan.

Parrandachilik seleksiyasida turli mahsulot yo'nalishidagi parranda zotlarining xorijdan keltirib, avlodlarining seleksion guruhlarini mahsuldorlik ko'rsatkichlarini o'rganish, parrandachilik yo'nalishida muhim va katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Turli kurkalarning nasllarini ko'paytirish muammosini hal etish, parrandachilikda seleksiya-naslchilik ishlariga e'tibor qaratish, naslli parrandalar seleksiya guruhlarini tashkil etish tizimini yo'lga qo'yish yo'nalishlarini aniqlash, O'zbekistonda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar sharoitida moslashtirish, sof zotli kurkalarning yuqori mahsuldorlik imkoniyatlarini asrab qolish uchun ularning avlodlarining go'sht mahsuldorlik ko'rsatgichlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Toshkent viloyatining tabiiy-iqlim sharoitida turli zot guruhlardagi kurkalarining o'sish va rivojlanishi, go'sht mahsulodorligini hamda go'sht sifatini qiyosiy baholash.

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib vazifalar belgilanadi.

-Tajriba guruxi kurkalarning o'sish va rivojlanishini aniqlash.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

-Ikki xil zotdagi kurkalarni saqlash usullari va oziqlantirish sharoitlari aniqlash.
-Tajribadagi kurkalarning klinik, fiziologik va gemotologik ko‘rsatgichlarini o‘rganish.
-Tadqiqotlarni iqtisodiy samaradorligini aniqlash.
-Kurkalarning go‘sht mahsuldorligi va sifatini o‘rganish.
-Turli zot kurkalarni parvarish qilishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganish.

Tadqiqotning ob’ekti: Toshkent viloyati Qibray tumanidagi institutimiz tajriba xo‘jaligida va Qibray tumani «Xumo-parranda biznes» mas’uliyati cheklangan jamiyati xo‘jaligida olib boriladi. Tajribalar kurkalarning (Big 6 va bronzarang keng ko‘krakli) zotini go‘sht mahsuldorligini solishtirish orqali o‘tkaziladi.

Tadqiqotning predmeti: turli toifadagi xo‘jaliklarda sanoat va shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar sharoitida boqilayotgan go‘sht yo‘nalishidagi kross kurkalari bo‘ladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: O‘zbekiston sharoitida turli boqish texnologiyasida chetdan keltirilgan go‘sht yo‘nalishidagi Big 6 va bronzarang keng ko‘krakli kurkalarini ilk bor o‘sish va rivojlanishi o‘rganiladi, go‘sht mahsuldorligini taqqoslanadi.

Tadqiqot natijasining ishonchliligi: Dissertatsiya tadqiqotlarida sanoat asosida hamda tajriba uchastkasida turli mahsuldorlikga ega kurkalarning mahsuldorligi va mahsulotlar sifati, o‘sish, rivojlanish, ularning tana tuzilishlarining turli o‘zgarishlari ko‘rsatgichlari , ularning o‘zaro bog‘liqligi, natijalarning ilmiy-nazariy va amaliyotga mos kelishi; olingan ma’lumotlarga matematik-statistik ishlov berish, hamda tadqiqotlarda to‘plangan ma’lumotlar xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi; tadqiqot natijalari Respublika va Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilinishi mavzuni ishonchliligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasining joriy qilinishi: O‘zbekiston sharoitida go‘sht yo‘nalishdagi kross kurkalarni yetishtirishda ularning mahsuldorligi, ko‘rsatgichlarining o‘zgarishi bo‘yicha olingan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida tavsiyanoma ishlab chiqiladi.

Mazkur tavsiyanoma turli xo‘jaliklarda parrandalar zotlarining yuqori mahsuldorlik ko‘rsatgichlarini asrash, oziqlantirish orqali yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Tajribalarni o‘tkazish joyi

Mavzu bo‘yicha ilmiy -tadqiqotlar 2022-2024 yillarda Toshkent viloyati Qibray tumanidagi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti xo‘jaligida va Qibray tumanidagi «Xumo-parranda biznes» xo‘jaligida olib boriladi. Tajribalar go‘sht yo‘nalishidagi kross kurkalarida o‘tkaziladi.

Tadqiqot o‘tkazish uslublari.

-Sanoat usulida kurkalar yerda setkalar bilan o‘ralgan maydonlarda saqlanadi, kurkalar 3 mahal oziqlantiriladi, (1 ta binoda 500 boshdan) saqlanadi.

-Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda yerda har bir katakda 50 boshdan 3 mahal oziqlantirib saqlanadi.

-Tajribalar uchun kelib chiqishi, zotdorligi, yoshi, tirik vazni, o‘xshash bo‘lgan kurka jo‘jalari olinadi.(S. Brodi, A. Ya Borisenko va boshq., 1984))

-Tadqiqotlardagi kross kurkalarning kelib chiqishi va mahsuldorlik ko‘rsatkichlari haqidagi ma’lumotlar xo‘jaliklarda yuritilayotgan birlamchi zootexniya hujjatlaridan olinadi. Tadqiqot sxemasi VNPITIP (1994) uslubi asosida o‘rganiladi.

-Umumiy qabul qilingan zootexnikaviy (go‘sht mahsuldorligi, ozuqa sarfi) usullarda olinadi.(P.P.Sarenko,1988)

-Yosh kurkalarning o‘sish dinamikasi o‘rganishda har oyda tarozida yakkama-yakka tortish orqali to 1 kunlik yoshidan , katta yoshdagi kurkalar 120 kunliklik yoshida. .(N.A.Ploxinskiy. 1969)

-Kurkalarning yashovchanligi 1-7 haftalik yoshidagi chiqimlari asosida aniqlanadi. Bunda o‘lgan, majburan so‘yilgan kurkalar soni yo‘qotish deb hisoblanib, hisobdan chiqarib tashlanadi (T.M.Polivanova usuli).

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

-Tajribalardagi guruxlarning iqtisodiy samaradorligi olingan parranda go‘shti tannarxi bilan haqiqiy ozuqa sarfi va uning tajriba guruhlari orasidagi umumiy harajatlardagi ulushiga qarab hisoblanadi. (Syudent usuli)

-Qon tarkibi va go‘sht sifatini aniqlashda gematologik hamda biologik usullarda bajariladi.


-Tadqiqotlarda kurkalarning tirik vaznlari tarozida tortish, eksterer ko‘rsatkichlari ular o‘lchamlarini o‘lchash orqali aniqlash, interer ko‘rsatkichlari nazorat so‘yish usulida bajariladi.(N.A.Ploxinskiy, 1969)

-Tajriba parrandachilik xo‘jaliklaridagi ozuqa zahiralaridagi ozuqa turlarini hisobga olgan holda kurkalarning oziqlantirish ratsionlari ishlab chiqiladi va oziqlantiriladi, ozuqa sarfini mahsulot bilan qoplanishi zootexnikaviy usulda aniqlanadi.


-Olib borilgan tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi har bir kurka guruxiga sarflangan xarajatlar va undan olingan mahsulotlar qiymatlari o‘rtasidagi farqni aniqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi (A.A.Polyanichkin,1980).

-Tadqiqotlarda olingan ma’lumotlar Ye.K.Merkureva (1970) uslubida biometrik usulda qayta ishlanadi.

T A D Q I Q O T L A R T A S V I R I *



E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934



KUTILADIGAN NATIJALAR:

Turli zotga mansub kurkalarda tajriba o‘tkazish orqali ularni shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari sharoitiga moslashtirib kurkalar mahsuldorligi oshiriladi**.**

Kurkalarni ratsional oziqlantirish orqali go‘sht mahsuldorligini oshirishga, sifatini yaxshilashga erishiladi. Kurkalarning go‘sht mahsuldorligi ya’ni shaxsiy tomorqa xo‘jaliklardagi kurka go‘sht mahsuldorlik rentabilligi 18-20% ga oshirish kutiladi.

Aholi xonadonlarida xam kurka boqishni samarali qo‘llash yo‘lga qo‘yilib, qishloqlardagi oilalarni daromadi ko‘payishi va turmush farovonligini yuksaltirishga erishiladi.

Sanoat kurkachiligida big-6 krossiga mansub kurkalarning o‘sishi, rivojlanishi va go‘sht mahsuldorligiga ilmiy asosda o‘rganiladi, xamda bu texnologiyaning aholi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklaridagi texnologiya bilan solishtiriladi. Maqbul texnologiya ishlab chiqarishga tavsiya beriladi.

Amalda bajarilayotgan ishlar: Tadqiqot boshlanishida 50 dona bronzarang kurkalardan olib keldim. Ularni parvarishlash, vaksina ishlari, oziqlantirish ishlarini boshladim. Eng avvalo ularni tirik vaznini o’lchashdan boshladim.

									0	1	2
irik vazni (g)	5	8	5	4.3	2	4	9	3	5	0	4	1

3	4	5	6	7	8	9	0	1	2	3	4	5
5	8	2	3	1	6	5.4	5	9	3	0	8	2

6	7	8	9	0	1	2	3	4	5	6	7	8
6	3	5	1.5	8	4	6	4	6	9	5	1	1

9	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	0	**ami**
0	6	4	8	2	5	1	1	5	5	2	6	442.2

WORDLY KNOWLEDGE

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Bundan yuqori vaznli 76 g, o'rtachasi 68.8 g, eng kam vaznlisi 61 g ni tashkil qildi. Kurka jo'jalarini H-120 bronxitga burniga tomizish orqali emladim. La-co-ta vaksinasi ya'ni nyukasilga qarshi ko'ziga tomizish orqali emladim. Kurka jo'jalari ko'zlari chaqnab turibdi, harakatchan. Ularni yorug' yaxshi tushadigan binoga saqladim, xona xarorati 30 gradus qilib saqladim. Tagiga 5 sm qalinlikda apilka tushadim. Suviga 1 l ga 1 g furazalidon qushib berdim, sababi jo'jalar tashqi ozuqaga moslashib ichi ketib, kasallanmasligi uchun berdim, 3 kun o'tgach chiktonik 1 l ga 1g qushib berdim. 3 kun tuxum qaynatib maydalab berdim. 3 kundan keyin maxsus tayyorlangan star emidan bosh soniga 13 g dan berdim. Star emidan 10 kun mobaynida berdim. Keyin jo'jalarga maydalangan makkajo'xori, maydalangan bo'g'doy, guruchni maydakanganini aralashtirgan holda 1150 g berdim. Bu ozuqani 1 oy mobaynida har bir bosh soniga 5-10 g gacha qo'shib berib bordim. Kurka jo'jalari o'sish jadal, ishtahasi yaxshi, kasallanish holati kuzatilmadi.

XULOSA.

Bronzarang kurka jo'jalari o'zimizni issiq iqlimga moslashuvchan ekan. Yashovchanlik darajasi yuqori ekan. Ozuqadan keying ozuqaga o'tishda moslashuvchan ekan. Sovuqqa chadamli ekan. Bronzarang kurkalarni xonadon sharoitida boqsa bo'lar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurov M. "Kurkachilik" 1956 y, Toshkent davlat qishloq xo'jalik instituti kutubxonasi.

2. Azimov S.G, Ashurov Z, O'rmonov A, Ribina Ye. "Go'shtdor parrandachilik". T.1974 y.85 b.

3. Gromov .A.M "Vegetativnaya gibridizatsiya ptis" , "Kolos" Moskva-1964.

4. Islomxo'jaev S., Boboev S, G'ulomov Q. "Parrandachilikdan amaliy mashg'ulotlar" Toshkent, "O'zbekiston" 1996.

5. Kochish. I .I. "Ptitsevodstvo" M.: Kolos, 2001.

6. Kiselyov.L.Yu. Praktikum po organizatsii i texnologii rabot v ptitsevodstve. Moskva vo "Agropromizdat" 1989.

7. Laboyko Yu. "Kurkalarni parvarishlash bo'yicha tavsiyalar". "O'zbekiston parrandachiligi" ilmiy-ommabop, axborot-ma'rifiy jurnal. №01(06)-2016.

8. Mityushnikov. V. M. Yestestvennaya rezistentnost selsko-xozyaystvennoy ptisы.

9. Penionjkevich .E.E. "Selskoxozyaystvennaya ptitsa" I tom Moskva 1962.

10. Smetnev.S.I. "Ptitsevodstvo" Moskva. 1962.

WORDLY KNOWLEDGE